Bolalar Muqaddas Kitobi

Tasvirlab beradi

Qirq yil

...tomonidan yozilgan: Edward Hughes

...tomonidan illustrasiya qilingan:
Janie Forest; Alastair Paterson

...tomonidan o'zgartirishlar kiritilgan:
Lyn Doerksen

...tomonidan ishlab chiqarilgan: Bible for Children
www.M1914.org

©2021 Bible for Children, Inc.
Lisenziya: Bu hikoyani chop etishingiz yoki nusha ko'chirishingiz mumkin.
Lekin u sotilmaydi.



Xudovand Isroil xalqini Misrdan ozod qilgandan keyin Muso odamlarni hamdu sanolar aytishda etakladi. U shunday deb Xudoga hamdu sano aytdi: "Men Xudovandning yuksakligini olqishlayman." Xudoning Isroilga qilgan barcha yaxshiliklari Muso Unga uchun hamdu sano kuyladi.

HALLELUJAH!
GLORY TO GOD!



Uch kundan so'ng chanqagan odamlar cho'lda quduq topishdi, ammo undagi suv taxir bo'lgani uchun icha olishmay, nolishdi. Xudo juda rahmdil bo'lib, suvni ichishga yaroqli qildi.

Odamlar hamma narsadan noliy boshladi. Ular: “Misrda yeyish uchun ovqatimiz bor edi. Bu erda esa ochdan vafot etamiz!” -deyishardi. O’sha kecha Xudo odamlarga bedana qushlarini jo’natdi. Ular qishlarni osonlikcha tutishardi.

Keyingi kuni ertalab Xudo ularga manna jo'natdi. Uning mazasi xuddi asalli nonga o'xshardi.
Shu tarzda Xudo har kuni ertalab odamlarga manna yuborardi.

Xudo har kuni odamlarga yangi yegulik jo'natishiga odamlar ishonardi. Lekin ba'zilar mannani ortig'I bilan yig'ib olardi.



Yig'ib qo'yilgan manna esa ertasi kuni qurt-qumursqaga to'la bo'lardi. Faqat Shabbat kuni manna toza turardi. O'sha mahsus kunda ular dam olib, yig'ib qo'yilgan mannani eyishardi.



Xudo sahroda Isroilliklarga g'amho'rlik qilardi. Ularga yegulik berardi, dushmanlaridan himoya qilardi.

Toki Muso Xudoning hassasini ko'tarib turar ekan, Isroil xalqi Omolek xalqi ustidan g'alaba qilardi.



Xudo Isroil xalqiga shunday dedi: “Agar Menga doim itoat etsangizlar, Mening tanlangan xalqim bo’lasizlar.” Odamalar Musoga: “Xudovand nima desa shuni bajaramiz!” –deyishdi. Muso Xudo bilan muloqatga ketganda, odamlar uni kutish uchun Sinay tog’ining yoniga borib turishdi.

Muso tog'da Xudo bilan qirq yil yashadi. Xudo ikki tosh parchasiga O'nta Amrni yozdi. U Musoga Xudoning odamlari qanday yashashi kerakligini aytdi.

1. “Mendan boshqa xudoingiz bo’lmasin.”

2. “O’zingizga butlar yasamang.”

3. “Xudoning nomini bekorga tilga olmang.”

4. “Shabbat kunini muqaddas biling va unga rioya qiling.”

5. “Ota-onangizni hurmat qiling.”

6. “Odam o’ldirmang.”

7. “Zino qilmang.”

8. “O’g’irlik qilmang.”

9. “Yolg’on gapirmang.”

10. “Hasad qilmang.”



Muso to'gda Xudo bilan muloqatga bo'lgan vaqtda Isroilliklar ayanchli narsa qilishdi. Ular Horunga oltindan buzoq yasashni buyurdi va unga sajda qilishdi. Bundan Xudovand juda g'azablandi. Shuningdek Muso ham g'azablandi.



Oltin buzoqni atrofida raqsga tushayotgan odamlarni ko'rgan Muso Amrlar yozilgan tosh parchalarini erga urib sindirdi. Keyin butni ham buzib tashladi. Butga sig'ingan ojiz odamlarni ham o'ldirdi.

Xudo singan tosh parchalarini o'rniga boshqasini berdi. U Musoga ma'bad qurishni amr etdi. Ma'badda odamlar Xudo bilan muloqat qilishi, Uni ulug'lashi mumkin edi. Olovli va bulutli ustun Xudo odamlar bilan ekanligidan dalolat berib turardi.

Ular Kan'on yeriga yaqinlashganda, Muso u yerga o'n ikkita qyg'oqchi yubordi. Ularning barchasi u joy haqiqatdan ham chiroyli ekanini aytishdi. Faqatgina Yoshua va Xolib o'sha joyni Xudoning yordami bilan bosib olishlariga ishonardi.

Qolgan o'nta ayg'oqchi esa u yerni mustahkam devorlari va bahaybat odamlaridan hayqirishardi. Ular: "Biz u joyni ololmaymiz!" -deyishardi.

Xudoning ularni Misrdan olib chiqqandagi buyuk ishlarini ular unutib qo'yishgandi.

Odamlar ham shubhalangan o'nta ayg'oqchilarga ergashdi. Ular nolib, Misrga qaytib ketishga tayyor edi. Hatto Musoni ham o'dirmoqchi bo'lishdi.



Lekin Xudo Musoning hayotini saqlab qoldi. So'ng odamlarga shunday dedi: "Qirq yil mobaynida sizlar cho'lda sarson bo'lasizlar. Faqat Yoshua, Xolib va sizlarni farzandlaringiz
Men va'da qilgan
yerga kiradi!"



Qirq yil

Hikoya Hudo Kalomi Injildan olingan

…dan topilgan

Chiqish 15 – Sonlar 14

“Kaloming ochilib qolganda ziyo ochar.”
Zabur 119:130

Hikoya tugadi

Bu Kalomdagi Hikoya bizlarga, Hudoning bizlarni ajoyib qilib yaratganligi haqida va biz Uni tanib bilishimiz qanchalik muhim ekanligi haqida hikoya qilib beradi.

Hudo, biz ko'p yomonliklar qilganimizni biladi va U bu Yomonliklarni gunoh deb atadi. Gunohning evazi o'lim lekin Hudo olamni shunchalik sevdiki O'zining Yagona O'g'lini berdi, va U bizning gunohlarimiz uchun hochda o'ldi. U tirilib yana Osmonga ko'tarildi. Unga ishongan kishi halok bo'lmaydi balki abadiy hayotga ega bo'ladi. Agar sis Isoga ishonsangiz, Undan gunohlaringiz uchun kechirim so'rang, U gunoharingizni kechiradi. U sizning yuragingizga kelib yashaydi va siz U bilan abadiy yashaysiz.

Agar siz bu so'zlar haqiqatligiga ishonsangiz, Hudoga shunday deb ayting:
Qadrli Iso, Men Sening Hudoliginga ishonaman, Sen yer yuziga kelib mening gunohlarim uchun o'lding, va Sen yana hozir tiriksan va bir kuni men sen bilan abadiy bo'laman. Men hozir yangi hayot bilan yashayman, iltimos mening hayotimga kel, men Senga itoat qilishim uchun va Sening frazanding bo'lishim uchun yordam ber.

Muqaddas Kalomni o'qib Hudo bilan har kuni suhbatlashing!
Yuhanno 3:16